
أَنْ yuklamasi bilan yasaladigan sintaktik konstruksiyalar

Xojiakbar Nuriddinov
hojiakbar8228@gmail.com

Katta o'qituvchi,
O'zbekiston xalqaro Islomshunoslik akademiyasi

Annotatsiya *Ushbu maqolada arab tilidagi sintaktik konstruksiyalarda "أَنْ" (an) yuklamasining funktsional-semantik xususiyatlari, uning fe'l bilan kelishidagi o'rni hamda turli grammatik ma'nolarni ifodalashdagi roli tahlil etiladi. Shuningdek, "أَنْ" yuklamasi ishtirokidagi fe'l jumllarining tuzilish modellari va ularning arab tili grammatikasidagi ahamiyati ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar *أَنْ (an), ergash gap, sintaktik konstruksiyalar, nasb holati, fe'l bilan kelish*

Синтаксические конструкции с частицей أَنْ

Хожиакбар Нуриддинов
hojiakbar8228@gmail.com

Старший преподаватель,
Международная исламская академия
Узбекистана

Аннотация *В данной статье анализируются функционально-семантические особенности конструкций с элементом "أَنْ" (an) в арабском языке, его роль в согласовании с глаголом, а также его значение в выражении различных грамматических значений. Также рассматриваются модели построения предложений с участием "أَنْ" и их значимость в грамматике арабского языка.*

Ключевые слова *"أَنْ" (an), зависимые предложения, синтаксические конструкции, винительный падеж, согласование с глаголом*

Syntactic constructions formed with the particle "أَنْ" (an) in Arabic

Khojiakbar Nuriddinov
hojiakbar8228@gmail.com

Senior teacher,
International Islamic Academy of Uzbekistan

Annotation *This article analyzes the functional-semantic characteristics of the particle "أَنْ" (an) in Arabic syntactic constructions, its role in agreement with verbs, and its function in expressing various grammatical meanings. Additionally, the article examines the structural models of verb sentences involving "أَنْ" and their significance in Arabic grammar.*

Key words *أَنْ (an), subordinate clause, syntactic constructions, accusative case, agreement with verb*

Kirish

Zamonaviy lingvistikada til birliklarining funksional va semantik xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, yordamchi so'zlar, jumladan yuklamalar (huruf al-ma'aniy) tilning grammatik qurilishida va ma'no ifodalash tizimida alohida o'rin tutadi. Arab tili, o'zining boy morfologik va sintaktik tuzilishi bilan ajralib tursa-da, yuklamalarning roli va funksiyalarini chuqur tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Metodologiya

Arab tilida *yuklamalar* (حروف المعاني - huruf al-ma'aniy) - bu mustaqil ma'noga ega bo'lmay, boshqa so'zlar bilan birga kelib, ularga turli grammatik va ma'noviy munosabatlarni qo'shuvchi yordamchi so'zlardir. Ular o'zlaridan oldingi yoki keyingi so'zlarning kelishigini, zamonini yoki boshqa grammatik xususiyatlarini belgilashi mumkin, shuningdek, gapga qo'shimcha ma'nolar (savol, inkor, ta'kid, sabab, maqsad va boshqalar) berishi mumkin.

Arab tilidagi yuklamalar ma'nolari va vazifalariga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi:

1. **Jar harflari** (حروف الجر - **huruf al-jar**): Bu yuklamalar o'zlaridan keyin kelgan ismlarni jar (roditelniy) holatga tushiradi va ular bilan fe'l, sifat yoki boshqa ismlar o'rtasida turli munosabatlarni (o'rin, vaqt, sabab, maqsad, egalik va boshqalar) ifodalaydi.
2. **Nasb qiluvchi harflar** (حروف النصب - **huruf an-nasb**): Bu yuklamalar o'zlaridan keyin kelgan muzora' (hozirgi-kelasi zamon) fe'lini nasb (vinitelniy) holatga tushiradi va ko'pincha fe'lning masdar ma'nosini ifodalaydi.
3. **Ta'kid yuklamalari** (حروف التوكيد - **huruf at-tavkiyd**): Bu yuklamalar gap yoki so'z ma'nosini kuchaytirish uchun keladi. Asosiy ta'kid yuklamalari:
4. Bundan tashqari, arab tilida savol yuklamalari (أ - a, هَلْ - hal), inkor yuklamalari

(مَا - maa, لَا - laa, لَيْسَ - laysa), shart yuklamalari (إِنْ - in, لَوْ - lav, لَوْلَا - lavlaa, لَمَّا - lammaa) va boshqa ma'nolarni ifodalovchi ko'plab boshqa yuklamalar ham mavjud.

Nasb qiluvchi harflar arab tili sintaksisining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Ular fe'lning zamon va mayl kategoriyalariga ta'sir ko'rsatib, jumlaning ma'noviy tuzilishida muhim rol o'ynaydi. "Nasb" istilohi fe'lning oxiridagi grammatik o'zgarishni (asosan fatha holatiga kelishini) anglatadi va bu holat fe'lning muayyan sintaktik vazifada kelayotganini ko'rsatadi.


Nasb qiluvchi harflarning asosiy vazifasi muzora' fe'lini masdar ma'nosiga yaqinlashtirishdir. Masdar fe'lning ish-harakat nomi bo'lib, otga xos xususiyatlarni o'zida mujassam etadi. Nasb qiluvchi harflar yordamida hosil bo'lgan fe'l-masdar konstruksiyasi jumlada ega, to'ldiruvchi, holat kabi turli sintaktik o'rinlarda kelishi mumkin.

Shuningdek, nasb qiluvchi harflar muzora' fe'lga turli qo'shimcha ma'nolarni ham yuklashi mumkin. Masalan, أَنْ (an) kelasi zamonning umumiy ifodasi bo'lsa, لَنْ (lan) kelasi zamonning inkorini bildiradi. كَيْ (kay) va لِي (li) maqsad ma'nosini ifodalasa, حَتَّى (hattaa) maqsad yoki natijani anglatishi mumkin. إِذَنْ (izan) esa javob yoki natija ma'nosini bildiradi.

أَنْ (an) yuklamasi arab tili grammatikasida muhim o'rin tutadigan nasb qiluvchi harf (حرف نصب) hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi o'zidan keyin kelgan muzora' (hozirgi-kelasi zamon) fe'lini nasb holatga o'tkazishdir. Bundan tashqari, أَنْ (an) ko'pincha fe'lning masdar ma'nosini ifodalaydi.

Arab tilida qo'shma va ergash gaplar, ba'zida oddiy fe'liy jumlar ham sintaktik (birikmani tashkil etuvchi) konstruksiyalar yordamida ifoda etiladi. Agar to'laroq ta'riflaydigan bo'lsak, sintaktik konstruksiyalar deb - grammatik jihatdan o'zaro bog'lanib, bir

sintaktik birikmani tashkil etadigan ikki va undan ortiq so'z, umuman so'zlar birikmasiga aytiladi.



Odatda أَنْ yuklamasining eng ko'p va keng miqyosda qo'llanadigan vazifasi istak maylini ifodalashdir.

أَنْ yuklamasi hamma vaqt xohish, istak, niyat, imkoniyat, zarurat, qaror qilish, rozilik, buyruq, man etish, ruzsat etish, qo'rquv, xavfsirash, xursandchilik, ajablanish ma'nolarini anglatuvchi fe'llardan keyin qo'yiladi.

يَجِبُ عَلَيْكَ أَنْ تَجْتَهِدَ – Sen harakat qilishing kerak.

يَتَّبِعِي لَكَ أَنْ تَذْهَبِ إِلَى مَحْمُودٍ فَوْرًا – Sen zudlik bilan Mahmudning oldiga borishing kerak.

لَا اسْتَطِيعُ أَنْ أَتْرُكَ وَالِدَيْ – Ota-onamni tark eta olmayman.

Tarjimada أَنْ fe'l bilan birgalikda ish-harakat nomi-masdar ma'nosida keladi.

Shu sababli o'zbek tiliga tarjima qilinganida masdar bilan almashtirilishi mumkin. Arab tilidagi variantida ham masdar bilan almashtirish joizdir.

طَلَبْتُ خُضُورَهُ=طَلَبْتُ أَنْ يَخُضِرَ

Uning ishtrok etishini so'radim.

Shuni takidlash kerakki, gumon va bilishlikni anglatuvchi fe'llardan keyin bu yuklama o'zbek tilida "-ki", "...ligini", "deb" ma'nolari orqali tarjima qilinadi.

Masalan:

سَمِعْتُ أَنْ زَيْدًا رَجَعَ yoki سَمِعْتُ أَنْ رَجَعَ زَيْدًا deyish ham mumkin.

Zayd qaytib kelganligini eshitdim (yoki...qaytib keldi, deb eshitdim. Yoki, eshitdimki, Zayd qaytib kelibdi.)

أُرِيدُ أَنْ تَكْتُبَ (Abdujabborov, 2015) yozishingni xohlayman.

أَنْ yuklamasining birgina o'zi bir qancha ma'nolarni o'zida mujassamlashtirishi mumkin. Biroq bu ma'nolarning asosiy mohiyati أَنْ bilan yasaladigan murakkab konstruksiyalarda namoyon bo'ladi.

Bu konstruksiyalar ergash gapli qo'shma gaplarda jumalalarda bog'lovchi vazifasini bajarib, turli murakkab ma'nolarni ifoda etishda xizmat qiladi.

Chunonchi, sabab ergash gap tarkibida أَنْ boshqa konstruksiyalar ham qo'llanishi mumkin. Bu konstruksiyalar ergash gapning boshiga qoyiladi va uni bosh gapdan ajratib turadi.

Bunda fe'ldan oldin أَنْ va ot(ega) dan oldin kelsa, أَنْ qo'llaniladi.

صَارَ إِطْلَاقُ الْإِنْسَانِ إِلَى الْفَضَاءِ مُمَكِّنًا بِسَبَبِ أَنْ الْعُلُومَ التِّكْنِيكِيَّةَ تَطَوَّرَتْ سَرِيعًا

Texnik fanlar juda tez rivojlangani sababli insonning fazoga chiqish imkoniyati paydo bo'ldi.

لَمْ يَخُضِرْ مَحْمُودٌ الدَّرْسَ بِسَبَبِ أَنْ يَمْرُضَ (أَنْ يَمْرُضَ)

Mahmud kasalligi sababli darsga kelmadi.

بِفَضْلِ أَنْ تَرَيَّضَ تَحَسَّنَتْ صِحَّتُهُ بِصُورَةٍ مَلْحُوظَةٍ

U sport bilan shug'ullanganligi tufayli, sog'ligi sezilarli darajada yaxshilandi.

Maqsad ergash gaplar tarkibida لِأَنَّ، لِأَنَّ، لِأَنَّ bo'lishlik va bo'lishsizlik (inkor) mazmunini ifodalovchi konstruksiyalar qo'llaniladi.

Bu konstruksiyalar(bog'lovchilar)ergash gap oldidan kelib uni bosh gapga bog'laydi.

Maqsad ergash gap bosh gapdan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin,

رُمَلَاءَنَا الْأَعْرَاءُ، عَلَيْنَا أَنْ نَحْفَظَ عَلَى النُّظَافَةِ، لِأَنَّ النُّظَافَةَ مِنَ الْإِيمَانِ (Abdubborov, 2015).

Aziz hamkasblarimiz, tozalikni saqlashimiz kerak, chunki tozalik iymondandir.

Inkor ma'nosida أَنْ konstruksiyasi qo'llanib "-maslik" uchun deb tarjima qilinadi.

يَجِبُ عَلَيْكَ أَنْ تَجِيءَ فِي وَقْتِ مُحَدَّدٍ أَلَّا تَتَأَخَّرَ عَنِ الْجُمُعَاتِ

Majlisga kechga qolmasliging uchun belgilangan vaqtda kelishing kerak.

أَنْ yuklamasi sabab ergash gap tarkibida qo'llanishi mumkin.

تَدِمْتُ عَلَى أَنْ لَمْ أَكُنْ رَأَيْتُكَ

Men seni ko'rmaganimdan (uchun) afsusdaman.

Bu jumlada عَلَى predlogi fe'l boshqaruvida kelayapti. Shuning uchun bu jumlada أَنْ yuklamasi predlogi bilan أَنْ konstruksiyasini tashkil etib kelgan.

Arab tilida mustaqil عَلَى أَنْ konstruksiyasi mavjud emas, bu konstruksiya faqat fe'l boshqaruvida kelgan عَلَى predlogi bilan hosil bo'ladi. Ya'ni, yuqoridagi jumlada uning ma'nosi عَلَى predlogiga bevosita bog'liq.

U kechga نَظَرًا لِأَنَّ تَتَأَخَّرَ لَمْ يَحْضُرِ الدَّرْسَ qoganligi sababli daqrsda ishtirok eta olmadi.

Ergash gapli qo'shma gaplar ichida ega ergash gap qo'llanish ko'lami boyicha qo'shma gaplarning keng yoyilmagan va istemolda kam qo'llanadigan turi hisoblanadi.

Odatda ega ergash gap bosh gapga nisbiy olmoshlar (ما، الذي) va shuningdek أَنْ yoki أَنْ yuklamalari yordamida ham birikishi mumkin. Bunda ko'pincha bosh gap shaxsi noma'lum bo'lgan أَنْ yuklamasi ishtirok etgan quyidagi iboralardan tashkil topadi.

Mumkin yoki mumkinki,... مِنْ الْمُمْكِنِ أَنْ(أَنْ)

...zarur , yoki zarurki... لَا بُدَّ مِنْ أَنْ , لَا بُدَّ أَنْ

U qila oladiki, ... بِإِمْكَانِهِ أَنْ

...maslik kerak. لَا يَجُوزُ أَنْ

zarur, ... مِنْ الْوَاجِبِ أَنْ , مِنْ الضَّرُورِيِّ أَنْ , عَلَى أَنْ zarurki...

...Kitilayotirki, kutish mumkinki. مِنْ الْمُتَوَقَّعِ أَنْ

...Talab qilinadi (kerak). الْمَطْلُوبُ أَنْ

Men seni ehtiyot qilishim kerak. مِنْ الْوَاجِبِ أَنْ أُرَاعِيكَ

Seni hozir soliqni to'lashing talab qilinadi. وَمِنْ الْمَطْلُوبِ أَنْ تَدْفَعَ الضَّرْبِيَّةَ

Biz darslarimizni yodlashimiz kerak. لَا بُدَّ لَنَا أَنْ نَحْفَظَ دُرُوسَنَا

Yangi so'zlarni unutmasliging kerak. لَا يَجُوزُ أَنْ تَنْسَى الْكَلِمَاتِ الْجَدِيدَةَ

مِنْ الْمُتَوَقَّعِ أَنْ يَصِلَ إِلَيَّ طُشْفُنْدُ وَفَدُ عُلَمَاءِ التَّارِيخِ الْعَرَبِيِّ فِي كِلَاسِ الْوَيْدَانِ – Kelasi oyning oxiriga Toshkentga arab tarixchilari delegatsiyasining kelishi kutilmoqda.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki أَنْ yuklamasining ega ergash gapli qo'shma gaplarda qo'llanishi sermahsuldir.

Tahlil va natijalar

أَنْ yuklamasi bilan qo'llaniladigan konstruksiyalarni istisno ergash gaplar tarkibida qo'llanishini ham ko'rish mumkin. Bular quyidagilar: وَأَنْ , وَأَنْ , وَأَنْ , وَأَنْ , وَأَنْ , وَأَنْ va boshqalar.

Istisno ergash gap bosh gapdagi ish-harakatning harakterini o'zidagi ish-harakatning bajarilmagani holda amalga oshganligini bildirish orqali ifodalanadi. U bosh gapdan keyin keladi va biz yuqorida keltirgan konstruksiyalar bilan boshlanadi.

سَحَرَهُ دُونَ أَنْ يَعْلَمَ

U o'zi bilmagan holda uni sehrlab qo'ydi.

خَرَجْتُ مِنَ الْعُرْفَةِ دُونَ أَنْ أَقُولَ شَيْئًا.

Men hech narsa demasdan xonadan chiqdim.

ذَهَبَ إِلَيَّ جَزِيرَةُ الْعَرَبِ مِنْ غَيْرِ أَنْ يَعْلَمَ عَادَاتِ الْعَرَبِ وَأَخْلَاقَهُمْ.

U arablarning odatini va axloqini o'rganmay turib, Arabiston oroliga jo'nadi.

اسْتَطَاعَ دِرَاسَةَ اللُّغَةِ الْعَرَبِيَّةِ بِدُونِ أَنْ يَكُونَ فِي الْبُلْدَانِ الْعَرَبِيَّةِ.

U arab mamlakatlarida bo'lmay turib, arab tilini o'rgana oldi.

أَنْ yuklamasi payt ergash gaplarda ham sermahsul turli ma'nolarni ifodalovchi konstruksiyalar tarkibida qo'llaniladi.

Bular أَنْ, مُنْذُ أَنْ, إِلَى أَنْ, بَعْدَ أَنْ, قَبْلَ أَنْ va boshqalar.

Arab tilida payt ergash gap bosh gapdan oldin ham keyin ham kelishi mumkin. Payt ergash gap yuqorida zikr etilgan konstruksiyalar bilan boshlanadi.

وَ لَكِنَّهُ كَثِيرًا مَا يَفْهَمُ مَا تُرِيدُ أَنْ تَقُولَ قَبْلَ أَنْ تُتَرْجِمَ.

Biroq u biz aytmoqchi bo'lgan narsani tarjima qilmasimizdan avval tushunardi.

قَبْلَ أَنْ قُلْتُ لَهُ هَذَا ظَنَنْتُ طَوِيلًا. (Ibrohimov, 2024)

Bu haqda unga aytishdan oldin uzoq oyladim.

مُنْذُ أَنْ أَعْرِفَهُ يَسْتَعْمَلُ دَائِمًا بِالرِّيَاضَةِ.

Men uni bilganimdan beri, u doimo sport bilan shug'ullanadi.

تَعَرَّفْتُ بِهِ بَعْدَ أَنْ وَصَلْتُ إِلَى مُوسْكُو.

Men u bilan Moskvaga kelganimdan keyin tanishdim.

أَذْهَبَ بَعْدَ أَنْ أَشْرَبَ شَايَا. (Abdujabborov, 2015).

Choy ichganimdan keyin ketaman.

لَا يُغْلِي الْمَاءُ إِلَيَّ أَنْ يَبْلُغَ دَرَجَةَ الْحَرَارَةِ إِلَيَّ الْمِنَةِ.

Harorat 1000 ga yetmaguncha, suv qaynamaydi.

Yordamchi so'zi payt ergash

gapdagi ish-harakatning tugashi bilanoq, bosh

gapdagi ish-harakatning boshlanishini bildiradi. Bunda konstruksiyaning مَا أَنْ qismi payt ergash gap, حَتَّى qismi bosh gap oldiga qoyiladi. Mas:

مَا أَنْ سَمِعْتُ عَنْ يَوْمِ مِيلَادِهِ حَتَّى اسْتَرَيْتُ لَهُ الْهَدِيَّةَ.

Uning tug'ilgan kuni haqida eshitganim bilanoq, unga sovg'a sotib oldim.

أَنْ yuklamasi yaqinlikni anglatuvchi fe'llardan keyin ham qoyilishi mumkin.

M-n:

عَسَى أَنْ يَكُونَ ذَلِكَ.

Ehtimol bu bo'ladi (amalga oshadi)

أَوْشَكَ أَنْ يُفَيْلَ الرَّبِيعِ.

Bahor ham boshlanay(kirishay) deyapti.

كَأَنَّ أَنْ يَهْلِكُوا.

Ular o'layozdilar.

Xulosa

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdi أَنْ yuklamasi mustaqil holatda va murakkab sintaktik konstruksiyalar hosil qilib, ega, sabab, maqsad, payt, istisno, ergash gaplar tarkibida qo'llanib har tomonlama chuqur va sermazmun fikrlarni ifoda etishga yordam beradi. Mazkur yuklama va u yordamida yasaladigan sintaktik konstruksiyalar badiiy, ijtimoiy – siyosiy, tarixiy va ilmiy – ommabop matnlarda ko'plab uchraydi. Bu konstruksiyalarni o'zlashtirish ularni har tomonlama to'la - to'kis va mukammal tarjima qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdujabborov, A. (2015). Arab tili. Toshkent: Toshkent Islom Universiteti.
2. Гранде, Б. М. (1998). Курс арабского языка в сравнительно-историческом освещении. Москва.
3. Ibrohimov, N., Yusupov, M., & Oripov, A. (2024). Arab tili grammatikasi (1-2-jild). Toshkent: G'ofur G'ulom.
4. Talabov, E. (1993). Arab tili. Toshkent.
5. Мамедов, М. (1986). Учебник арабского языка. Боку.
6. Бобилева, Э. (1998). Арабский язык в синтаксических конструкциях. Москва

7. حبيب مغنية "الوفى فى النحو و الصرف" بيروت ٢٠٠٨م

8. حنفى ناصف محمد دياب "الدروس النحوية" القاهرة ١٩٩٧م

9. فؤاد نعمة "ملخص قواعد اللغة العربية" القاهرة ١٩٩٨م

10. Orifxo'jayev, N.M. (2009) Arab tili. Toshkent.
11. <https://www.almaany.com>
12. <https://www.reverso.net>